
№6 2026

ISSN: 3093-9240

FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR

IJTIMOIY-GUMANITAR SOHALARGA IXTISOSLASHGAN ILMIY JURNAL



FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR
ilmiy-amaliy metodologik jurnal

МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЕ НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
научно-практический и методологический журнал

INTERDISCIPLINARY SCIENTIFIC RESEARCH
scientific-practical and methodological journal



№6 2026

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 5-may sanasida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, 1564147-sonli rasmiy guvohnoma asosida faoliyat yuritadi.

BOSH MUHARRIR:

Ashurov Ramzidin Ramazonovich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

TAHRIRIYAT VA EKSPERT KENGASHI

Rejep Uzyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Blinova Yelena Yevgeyevna – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina Natalya Yuryevna– psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Abdullayeva Barno Sayfutdinovna – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Ibragimova Gulsanam Ne’matovna – pedagogika fanlari doktori, professor
Mamurov Bahodir Baxshullayevich – pedagogika fanlari doktori, professor
Filippova Oksana Gennadevna– pedagogika fanlari doktori, professor (Rossiya)
Abdazimov Azizjan Abdusabirovich - pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Mirzayeva Faroxat Odiljonovna – pedagogika fanlari doktori(DSc), professor
Akramova Gulbahor Renatovna – pedagogika fanlari doktori(DSc), professor
Bafayev Muxiddin Muxammatovich – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Abdullayeva Dilbar Ubaydullayevna – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ismoilova Nurjahon Zuxuriddinovna – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Farfiyeva Kamola Adhamdjanovna – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Jabborov Xazrat Xusenovich – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Akramov Mirmuhsin Rustamovich – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Tuychieva Saodat Melikuziyevna – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ravshanov Lochinbek Urinovich – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Gadoyeva Mavlyuda Ibragimovna– filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Rasulov Zubaydullo Izomovich – filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Qurbonboyev Azimbek Nazirboy o‘g‘li – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Taniyeva Guldona Mamajonovna – tarix fanlari doktori, professor
Davlatova Saodat Tilovberdievna – tarix fanlari doktori, professor
Qurbonova Manzila Bozorovna – tarix fanlari nomzodi, professor
Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori, professor
Mirashirova Nargiza Anvarovna – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor
G‘ayipova Nargiza Anorbayevna – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Botirova Dilafruz Bozorovna – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Alimova Yelena Gennadiyevna – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Жексенбаева Гульнур – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) (Qozog‘iston)
Kudratova Lola Ravshanovna – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ismatulloyev Abdullo Nasrulloyevich - psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Jalilov Nodirjon Azamatovich – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Vaxobov Anvar Abdusattor o‘g‘li – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Raxmatova Mehriniso Musinovna – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Rahmatullayev Sharofiddin Nematullayevich - filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Xalilova Ruxsora Raupovna – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Bobojonov Shavkat Ulug‘bekovich – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sharipov Shoxruz Faxriddin o‘g‘li – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bo‘tayev Jonibek Shodiyevich – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bobojonova Feruza Xayatovna – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Mas’ul muharrir:
Xayitov Xayotjon Xikmat o‘g‘li

Texnik muharrir
Salimova Aziza Zoyirovna

Ingliz tili muharriri
Abduraximov Doniyor Abdusaid o‘g‘li

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР

Ашуров Рамзидин Рамазонович
доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент

РЕДАКЦИОННО-ЭКСПЕРТНЫЙ СОВЕТ

Реджеп Узюрек – доктор психологических наук, профессор (Турция)
Блинова Елена Евгеньевна – доктор психологических наук, профессор (Россия)
Стоюхина Наталья Юрьевна – кандидат психологических наук, доцент (Россия)
Абдуллаева Барно Сайфутдиновна – доктор педагогических наук (DSc), профессор
Ибрагимова Гульсанам Неъматовна – доктор педагогических наук, профессор
Мамуров Баходир Бахшуллаевич – доктор педагогических наук, профессор
Филиппова Оксана Геннадьевна – доктор педагогических наук, профессор (Россия)
Абдазимов Азизжан Абдусабирович – доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент
Мирзаева Фарохат Одилжоновна – доктор педагогических наук (DSc), профессор
Акрамова Гульбахор Ренатовна – доктор педагогических наук (DSc), профессор
Бафаев Мухиддин Мухамматович – доктор психологических наук (DSc), доцент
Абдуллаева Дилбар Убайдуллаевна – доктор психологических наук (DSc), профессор
Исмоилова Нуржахон Зухуриддиновна – доктор психологических наук (DSc), профессор
Фарфиева Камола Адхамджановна – доктор психологических наук (DSc), профессор
Атабаева Наргис Батировна – доктор психологических наук (DSc), профессор
Жабборов Хазрат Хусенович – доктор психологических наук (DSc), профессор
Акрамов Мирмухсин Рустамович – доктор психологических наук (DSc), профессор
Туйчиева Саодат Меликузиевна – доктор психологических наук (DSc), профессор
Равшанов Лочинбек Уринович – доктор психологических наук (DSc), профессор
Гадоева Мавлюда Ибрагимовна – доктор филологических наук (DSc), профессор
Расулов Зубайдулло Изомович – доктор филологических наук (DSc), профессор
Курбонбоев Азимбек Назирбой угли – доктор психологических наук (DSc), доцент
Таниева Гулдона Мамажоновна – доктор исторических наук, профессор
Давлатова Саодат Тиловбердиевна – доктор исторических наук, профессор
Курбонова Манзила Бозоровна – кандидат исторических наук, профессор
Турдиев Бехруз Собирович – доктор философских наук, профессор
Мираширова Наргиза Анваровна – доктор философии (PhD) по психологическим наукам, профессор
Гайипова Наргиза Анорбаевна – доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Ботирова Дилафруз Бозоровна – доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Алимова Елена Геннадьевна – доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Жексенбаева Гульнур – доктор философии (PhD) по психологическим наукам (Казахстан)
Кудратова Лола Равшановна – доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Исматуллоев Абдулло Насруллоевич – доктор философии (PhD) по психологическим наукам
Жалилов Нодиржон Азаматович – доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент
Вахобов Анвар Абдусаттор угли – доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент
Рахматова Мехринисо Мусиновна – доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент
Рахматуллаев Шарофиддин Нематуллаевич – доктор философии (PhD) по филологическим наукам
Халилова Рухсора Рауповна – доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент
Бобожонов Шавкат Улугбекович – доктор философии (PhD) по историческим наукам, доцент
Шарипов Шохруз Фахриддин угли – доктор философии (PhD) по историческим наукам
Бутаев Жонибек Шодиевич – доктор философии (PhD) по историческим наукам
Бобожонова Феруза Хаятовна – кандидат исторических наук, доцент

Ответственный редактор
Хайитов Хаётжон Хикмат угли

Технический редактор
Салимова Азиза Зойировна

Редактор английского языка
Абдурахимов Дониёр Абдусаид угли

EDITOR-IN-CHIEF

Ashurov Ramzidin Ramazonovich
Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

EDITORIAL AND EXPERT BOARD

Rejep Uzyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Türkiye)
Blinova Yelena Yevgeyevna– Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)
Stoyukhina Natalya Yuryevna – Candidate of Psychological Sciences, Associate Professor (Russia)
Abdullaeva Barno Sayfutdinovna– Doctor of Science (DSc) in Pedagogy, Professor
Ibragimova Gulsanam Nematovna– Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Mamurov Bakhodir Bakhshullaevich – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Filippova Oksana Gennadevna– Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Russia)
Abdazimov Azizjan Abdusabirovich– Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy, Associate Professor
Mirzaeva Faroxat Odiljonovna – Doctor of Science (DSc) in Pedagogy, Professor
Akramova Gulbahor Renatovna– Doctor of Science (DSc) in Pedagogy, Professor
Bafaev Muxiddin Muxammatovich– Doctor of Science (DSc) in Psychology, Associate Professor
Abdullaeva Dilbar Ubaydullaevna– Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Ismoilova Nurjakhon Zukhuriddinovna– Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Farfiyeva Kamola Adhamdjanovna– Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Atabaeva Nargis Batirovna– Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Jabborov Khazrat Khusenovich – Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Akramov Mirmukhsin Rustamovich – Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Tuychieva Saodat Melikuziyevna – Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Ravshanov Lochinbek Urinovich – Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Gadoyeva Mavlyuda Ibragimovna– Doctor of Science (DSc) in Philology, Professor
Rasulov Zubaydullo Izomovich – Doctor of Science (DSc) in Philology, Professor
Qurbonboev Azimbek Nazirboy ugli – Doctor of Science (DSc) in Psychology, Associate Professor
Taniyeva Guldona Mamajonovna – Doctor of Historical Sciences, Professor
Davlatova Saodat Tilovberdievna – Doctor of Historical Sciences, Professor
Qurbonova Manzila Bozorovna – Candidate of Historical Sciences, Professor
Turdiev Bexruz Sobirovich – Doctor of Philosophical Sciences, Professor
Mirashirova Nargiza Anvarovna – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Professor
Gayipova Nargiza Anorbayevna– Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Botirova Dilafruz Bozorovna – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Alimova Yelena Gennadiyevna – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Gulnur Zheksenbaeva – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology (Kazakhstan)
Kudratova Lola Ravshanovna – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Ismatulloev Abdullo Nasrulloevich – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology
Jalilov Nodirjon Azamatovich – Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy, Associate Professor
Vaxobov Anvar Abdusattor ugli – Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy, Associate Professor
Raxmatova Mehriniso Musinovna – Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor
Rahmatullayev Sharofiddin Nematullayevich – Doctor of Philosophy (PhD) in Philology
Khalilova Rukhsora Raupovna – Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor
Bobojonov Shavkat Ulug‘bekovich – Doctor of Philosophy (PhD) in History, Associate Professor
Sharipov Shokhruz Fakhriddin ugli – Doctor of Philosophy (PhD) in History
Butayev Jonibek Shodievich– Doctor of Philosophy (PhD) in History
Bobojonova Feruza Khayatovna – Candidate of Historical Sciences, Associate Professor

Responsible editor
Khayitov Khayotjon Khikmat ugli

Technical editor
Salimova Aziza Zoyirovna

English language editor
Abduraximov Doniyor Abdusaid ugli

HARBIY XIZMATCHILARDA KASBIY DEFORMATSIYANI OLDINI OLISHNING PSIXOLOGIK TEXNOLOGIYALARI

Qodirov G‘olibjon Tolibjon o‘g‘li
Oriental universiteti magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada harbiy xizmatchilarda kasbiy deformatsiyaning yuzaga kelish sabablari, psixologik mohiyati, namoyon bo‘lish shakllari hamda uning oldini olishga qaratilgan zamonaviy psixologik texnologiyalar tahlil qilingan. Harbiy xizmat faoliyatining yuqori darajadagi mas’uliyat, qat’iy intizom, doimiy ruhiy zo‘riqish va cheklangan ijtimoiy muhit bilan bog‘liq xususiyatlari kasbiy deformatsiya shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar sifatida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: harbiy xizmatchi, kasbiy deformatsiya, psixologik profilaktika, psixologik texnologiya, stress, emotsional barqarorlik, kasbiy moslashuv, psixologik trening, harbiy jamoa.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ТЕХНОЛОГИИ ПРОФИЛАКТИКИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕФОРМАЦИИ У ВОЕННОСЛУЖАЩИХ

Аннотация. В статье анализируются причины возникновения профессиональной деформации у военнослужащих, её психологическая сущность, основные формы проявления, а также современные психологические технологии, направленные на её профилактику. Рассматриваются особенности военной службы, связанные с высокой ответственностью, строгой дисциплиной, постоянным психическим напряжением и ограниченной социальной средой, которые выступают факторами формирования профессиональной деформации.

Ключевые слова: военнослужащий, профессиональная деформация, психологическая профилактика, психологические технологии, стресс, эмоциональная устойчивость, профессиональная адаптация, психологический тренинг, военный коллектив.

PSYCHOLOGICAL TECHNIQUES FOR PREVENTING PROFESSIONAL DEFORMATION AMONG MILITARY PERSONNEL

Abstract. This article analyzes the causes of professional deformation among military personnel, its psychological nature, main manifestations, and modern

psychological technologies aimed at its prevention. Particular attention is paid to the specific characteristics of military service, including high levels of responsibility, strict discipline, constant psychological stress, and a limited social environment, which contribute to the development of professional deformation.

Keywords: military personnel, professional deformation, psychological prevention, psychological technologies, stress, emotional stability, professional adaptation, psychological training, military team.

KIRISH

Zamonaviy harbiy xizmat sharoitida harbiy xizmatchilarning kasbiy tayyorgarligi, jangovar shayligi va psixologik barqarorligini ta’minlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Harbiy faoliyat o‘zining murakkabligi, yuqori mas’uliyat darajasi, qat’iy intizom, buyruq va bo‘ysunish munosabatlari hamda doimiy ruhiy zo‘riqish bilan boshqa kasbiy faoliyat turlaridan ajralib turadi. Bunday sharoitda uzoq muddat xizmat qilish harbiy xizmatchining nafaqat kasbiy ko‘nikmalariga, balki uning shaxsiy xususiyatlari, dunyoqarashi, xulq-atvori va boshqa insonlar bilan munosabatlariga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Harbiy xizmatchilarda kasbiy faoliyat ta’sirida shakllanadigan ayrim salbiy psixologik o‘zgarishlar kasbiy deformatsiya sifatida namoyon bo‘ladi. Kasbiy deformatsiya shaxsning kasbiy faoliyatga xos xususiyatlarni kundalik hayotga haddan tashqari ko‘chirishi, muomala va xulq-atvorida bir tomonlama o‘zgarishlar yuzaga kelishi, emotsional sezgirlikning pasayishi, murosasizlik, keskinlik va stereotip fikrlashning kuchayishi bilan tavsiflanadi.

Mazkur muammo harbiy jamoalarda alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki kasbiy deformatsiya nafaqat harbiy xizmatchining shaxsiy hayotiga, balki xizmat intizomi, jamoaviy munosabatlar, komandir va bo‘ysunuvchilar o‘rtasidagi muloqot hamda harbiy bo‘linmaning umumiy psixologik muhitiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Shu sababli harbiy xizmatchilarda kasbiy deformatsiyaning oldini olish, uning dastlabki belgilarini aniqlash va psixologik profilaktika mexanizmlarini takomillashtirish bugungi harbiy psixologiyaning dolzarb yo‘nalishlaridan biridir.

Kasbiy deformatsiya – bu uzoq muddatli kasbiy faoliyat, xizmat sharoitlari va kasbiy muhit ta’sirida shaxsning psixologik xususiyatlari, qadriyatlari, xulq-atvori va boshqa insonlar bilan munosabatlarida yuzaga keladigan nisbatan barqaror o‘zgarishlar majmuasidir. Bunday o‘zgarishlar ayrim holatlarda kasbiy vazifalarni samarali bajarishga xizmat qilishi mumkin, biroq ularning haddan tashqari kuchayishi shaxsning ijtimoiy moslashuvi va kasbiy munosabatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

Kasbiy deformatsiya muammosini o‘rganishda xorijiy tadqiqotchilar tomonidan ham muhim ilmiy yondashuvlar ishlab chiqilgan. Jumladan, amerikalik olimlar C. Maslach va M. Leiter kasbiy faoliyat bilan bog‘liq uzoq muddatli ruhiy zo‘riqish, emotsional holdan toyish va shaxslararo munosabatlardagi sovuqlashuvni kasbiy kuyish sindromining asosiy tarkibiy qismlari sifatida izohlaydilar. Ushbu yondashuv harbiy xizmatchilarda kasbiy deformatsiyaning ayrim ko‘rinishlarini tushunishda ham muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi[1].

Harbiy xizmatda kasbiy deformatsiyaning shakllanishiga bir qator omillar ta’sir ko‘rsatadi. Ularni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1. Kasbiy-faoliyat omillari: xizmat vazifalarining murakkabligi, yuqori mas’uliyat, doimiy nazorat, qat’iy intizom va uzoq muddatli xizmat yuklamalari.

2. Individual-psixologik omillar: stressga chidamlilikning pastligi, emotsional beqarorlik, o‘zini o‘zi nazorat qilish qobiliyatining yetarli rivojlanmaganligi.

3. Ijtimoiy-psixologik omillar: jamoada nizolarning ko‘pligi, rahbar va bo‘ysunuvchilar o‘rtasidagi munosabatlarning keskinligi, o‘zaro ishonchning pasayishi.

Shaxsiy hayot bilan bog‘liq omillar: oilaviy muammolar, dam olish va tiklanish imkoniyatlarining cheklanganligi, kasbiy va shaxsiy hayot muvozanatining buzilishi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Harbiy xizmatchilarda kasbiy deformatsiya turli shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin. Jumladan, ayrim harbiy xizmatchilarda haddan tashqari talabchanlik, buyruqbozlik, murosasizlik, boshqalarning fikrini qabul qilmaslik, keskin munosabat bildirish va emotsional sovuqqonlik kabi xususiyatlar kuchayishi mumkin. Boshqa holatlarda esa xizmat faoliyatiga nisbatan befarqlik, tashabbusning pasayishi, kasbiy motivatsiyaning susayishi va ruhiy charchoq kuzatiladi.

Kasbiy deformatsiyaning oldini olish uchun, eng avvalo, uning dastlabki belgilarini aniqlash va harbiy xizmatchining individual psixologik xususiyatlarini hisobga olish zarur.

Harbiy xizmatchilarda kasbiy deformatsiyaning oldini olish tizimli, uzluksiz va individual yondashuvga asoslangan psixologik tadbirlarni amalga oshirishni talab etadi. Bunda profilaktika faqat muammo yuzaga kelganidan keyin uni bartaraf etishga emas, balki salbiy psixologik o‘zgarishlarning shakllanishiga sabab bo‘ladigan omillarni oldindan kamaytirishga qaratilishi lozim.

Birinchi navbatda, psixologik diagnostika texnologiyasi muhim ahamiyatga ega. Ushbu texnologiya orqali harbiy xizmatchilarning emotsional holati, stressga chidamliligi, kasbiy motivatsiyasi, shaxslararo munosabatlari va psixologik moslashuv darajasi o‘rganiladi. Psixodiagnostik tadbirlar suhbat, kuzatish, anketa,

psixologik testlar va individual baholash usullari asosida tashkil etilishi mumkin. Diagnostika natijalari harbiy xizmatchiga nisbatan salbiy yorliq qo‘yish uchun emas, balki unga zarur psixologik yordamni belgilash uchun qo‘llanilishi kerak.

Ikkinchi muhim yo‘nalish – stressni boshqarish va emotsional o‘zini o‘zi nazorat qilish texnologiyasi hisoblanadi. Harbiy faoliyat davomida yuzaga keladigan zo‘riqishlarni boshqarish qobiliyati kasbiy deformatsiyaning oldini olishda muhim omildir. Buning uchun nafas olish mashqlari, mushaklarni bo‘shashtirish, diqqatni jamlash, ijobiy fikrlash va o‘z-o‘zini ruhiy boshqarish usullaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Masalan, harbiy xizmatchilarga murakkab xizmat vaziyatlaridan keyin qisqa muddatli psixologik tiklanish mashqlarini bajarish, o‘z hissiyotlarini anglash va nazorat qilish, salbiy fikrlarni konstruktiv fikrlash bilan almashtirish ko‘nikmalarini shakllantirish mumkin.

Uchinchi yo‘nalish – psixologik trening texnologiyasidir. Trening mashg‘ulotlari harbiy xizmatchilarning emotsional barqarorligi, kommunikativ kompetensiyasi, nizoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish qobiliyati va o‘zaro hamkorligini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Psixologik treninglarni quyidagi yo‘nalishlarda tashkil etish mumkin: stressli vaziyatlarda o‘zini boshqarish treninglari, emotsional barqarorlikni rivojlantirish mashg‘ulotlari, nizolarni konstruktiv hal etish treninglari, samarali muloqot va tinglash ko‘nikmalarini shakllantirish, jamoada o‘zaro ishonch va hamkorlikni mustahkamlash, kasbiy motivatsiya va shaxsiy mas’uliyatni rivojlantirish.

To‘rtinchi yo‘nalish – individual psixologik maslahat va psixokorreksiya texnologiyasidir. Harbiy xizmatchilarning psixologik xususiyatlari, xizmat tajribasi, yoshi, oilaviy sharoiti va individual ehtiyojlari turlicha bo‘lganligi sababli umumiy profilaktik tadbirlar bilan bir qatorda individual yondashuv ham zarur. Psixologik maslahat davomida harbiy xizmatchining muammolari tinglanadi, uning ruhiy zo‘riqish manbalari aniqlanadi va vaziyatga mos psixologik yordam ko‘rsatiladi.

Beshinchi yo‘nalish – ijtimoiy-psixologik muhitni sog‘lomlashtirish texnologiyasidir. Harbiy jamoada o‘zaro hurmat, adolat, ishonch, hamkorlik va konstruktiv muloqot tamoyillarining qaror topishi kasbiy deformatsiya xavfini kamaytiradi. Ayniqsa, komandirlarning boshqaruv uslubi, bo‘ysunuvchilarga munosabati va jamoada sog‘lom psixologik muhitni shakllantirishdagi mas’uliyati katta ahamiyatga ega.

Kasbiy deformatsiyaning oldini olish masalasi kasbiy kuyish, stress, shaxsning kasbiy moslashuvi va psixologik salomatligini saqlash muammolari bilan uzviy bog‘liqdir. Xorijiy tadqiqotlarda ushbu jarayonlarni tushuntirishga qaratilgan turli konsepsiyalar ishlab chiqilgan. Masalan, amerikalik psixolog C.Maslach kasbiy kuyishning emotsional holdan toyish, depersonalizatsiya va shaxsiy yutuqlarni

baholashning pasayishi kabi tarkibiy qismlarini ajratib ko‘rsatadi. Mazkur yondashuv harbiy xizmatchilarda ruhiy charchoq va shaxslararo munosabatlardagi salbiy o‘zgarishlarni erta aniqlashda muhim metodologik ahamiyatga ega[2,397]. Shuningdek, R.Lazarus va S.Folkman tomonidan ishlab chiqilgan stress va uni kognitiv baholash nazariyasi insonning stressli vaziyatga munosabati nafaqat tashqi sharoitlarga, balki ushbu vaziyatni qanday idrok etishi va unga qanday moslashish strategiyasini tanlashiga ham bog‘liqligini asoslaydi[3]. Bu yondashuv harbiy xizmatchilarda stressni boshqarish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va psixologik moslashuv ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston psixologiya fanida ham shaxsning kasbiy shakllanishi, psixologik yetukligi, kasbiy moslashuvi va individual xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha muhim ilmiy qarashlar mavjud. E.G‘.G‘oziyevning umumiy psixologiyaga oid tadqiqotlarida shaxsning psixik jarayonlari, individual xususiyatlari va o‘zini o‘zi boshqarish mexanizmlariga alohida e’tibor qaratiladi. Ushbu nazariy qarashlar harbiy xizmatchilarning individual psixologik imkoniyatlarini hisobga olgan holda profilaktik tadbirlarni tashkil etishda muhim ahamiyatga ega[3]. Bundan tashqari, V.M.Karimovaning ijtimoiy psixologiya va shaxslararo munosabatlarga oid ilmiy ishlari harbiy jamoalarda muloqot madaniyati, guruhiy munosabatlar va ijtimoiy-psixologik muhitni takomillashtirish masalalarini o‘rganishda nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi[4]. Mazkur ilmiy yondashuvlardan kelib chiqib aytish mumkinki, harbiy xizmatchilarda kasbiy deformatsiyaning oldini olish faqat individual psixologik yordam bilan cheklanmasligi lozim. Bu jarayon shaxs, harbiy jamoa va boshqaruv tizimi darajasidagi o‘zaro bog‘liq profilaktik tadbirlarni qamrab olishi zarur. Kasbiy deformatsiyaning oldini olish bo‘yicha psixologik texnologiyalarni samarali tashkil etish uchun kompleks profilaktika modelini joriy etish maqsadga muvofiq. Bunday model quyidagi bosqichlarni qamrab olishi mumkin:

Birinchi bosqich – psixologik monitoring. Harbiy xizmatchilarning emotsional holati, xizmatga munosabati, stressga chidamliligi va jamoaga moslashuvi muntazam o‘rganiladi. Bu bosqich kasbiy deformatsiyaning dastlabki belgilarini aniqlash imkonini beradi.

Ikkinchi bosqich – profilaktik ta’sir. Aniqlangan ehtiyojlardan kelib chiqib, stressni boshqarish, emotsional barqarorlikni rivojlantirish va samarali muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan treninglar tashkil etiladi.

Uchinchi bosqich – individual psixologik yordam. Yuqori darajadagi ruhiy zo‘riqish yoki kasbiy moslashuv bilan bog‘liq qiyinchiliklar kuzatilgan harbiy xizmatchilar bilan individual maslahat va zarur psixokorreksion ishlar olib boriladi.

To‘rtinchi bosqich – natijalarni baholash. O‘tkazilgan psixologik tadbirlarning samaradorligi takroriy diagnostika, suhbat, kuzatish va xizmat faoliyatidagi ijobiy o‘zgarishlar asosida baholanadi.

Ushbu bosqichlarning izchil amalga oshirilishi profilaktika tadbirlarining tizimliligini ta’minlaydi. Bunda psixologik diagnostika natijalarining maxfiyligi, harbiy xizmatchining shaxsiy qadr-qimmatini hurmat qilish va psixologik yordamning ixtiyoriy hamda kasbiy etikaga muvofiq tashkil etilishiga alohida e’tibor qaratish zarur. Kasbiy deformatsiyaning oldini olishda komandirlarning psixologik kompetensiyasini oshirish ham muhim o‘rin tutadi. Komandir harbiy xizmatchilarning xizmat faoliyatini tashkil etish bilan birga, ularning ruhiy holati, jamoaga moslashuvi va o‘zaro munosabatlariga ham e’tibor qaratishi lozim. Xususan, xodimlarning mehnatini adolatli baholash, asosli rag‘batlantirish, konstruktiv tanqid va o‘zaro hurmatga asoslangan muloqotni yo‘lga qo‘yish profilaktik ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, xizmat va shaxsiy hayot o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash, jismoniy faollik, sifatli dam olish, oilaviy munosabatlarni qo‘llab-quvvatlash va kasbiy rivojlanish imkoniyatlarini yaratish ham kasbiy deformatsiyaning oldini olishda muhim omillar hisoblanadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, harbiy xizmatchilarda kasbiy deformatsiyaning oldini olish ularning psixologik salomatligini saqlash, kasbiy faoliyat samaradorligini oshirish va harbiy jamoada sog‘lom ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirishning muhim shartlaridan biridir. Harbiy xizmatning murakkabligi, yuqori mas’uliyat va doimiy ruhiy zo‘riqish sharoitida kasbiy deformatsiyaning yuzaga kelish xavfi mavjud bo‘lib, uni kamaytirish tizimli psixologik profilaktika tadbirlarini talab etadi.

Tahlillar asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

Birinchidan, kasbiy deformatsiya harbiy xizmatchining kasbiy faoliyati ta’sirida yuzaga keladigan murakkab psixologik jarayon bo‘lib, uning namoyon bo‘lishi individual, kasbiy va ijtimoiy-psixologik omillarga bog‘liq.

Ikkinchidan, kasbiy deformatsiyaning oldini olishda psixologik diagnostika, stressni boshqarish, emotsional o‘zini o‘zi nazorat qilish, psixologik trening va individual maslahat texnologiyalaridan kompleks foydalanish zarur.

Uchinchidan, harbiy jamoada sog‘lom psixologik muhitni shakllantirish, komandirlarning psixologik kompetensiyasini oshirish va o‘zaro ishonchga asoslangan munosabatlarni rivojlantirish profilaktikaning muhim shartlaridan hisoblanadi.

To‘rtinchidan, kasbiy deformatsiyaning oldini olish bo‘yicha tadbirlar muntazam monitoring, individual yondashuv va natijalarni baholash tamoyillari asosida tashkil etilishi lozim.

Umuman olganda, harbiy xizmatchilarda kasbiy deformatsiyaning oldini olishga qaratilgan psixologik texnologiyalarni takomillashtirish harbiy xizmatchilarning kasbiy salohiyatini saqlash, emotsional barqarorligini mustahkamlash va xizmat faoliyatining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Maslach C., Leiter M.P. The Truth About Burnout: How Organizations Cause Personal Stress and What to Do About It. – San Francisco: Jossey-Bass, 1997.
2. Maslach C., Schaufeli W.B., Leiter M.P. Job Burnout // Annual Review of Psychology. – 2001. – Vol. 52. – P. 397–422.
3. Lazarus R.S., Folkman S. Stress, Appraisal, and Coping. – New York: Springer Publishing Company, 1984.
4. G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010.
5. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012.

SPONTANEOUS ONLINE SHOPPING AS A STRESS-COPING MECHANISM Alena Garber., Railya Kereyeva	6
HARBIY XIZMATCHILAR FAOLIYATIDA IJOBIY IMIJINING PSIXOLOGIK JIHATLARI Ravshanov Lochinbek Urinovich	14
ALFRED ADLER INDIVIDUAL PSIXOLOGIYASIDA SHAXS SIBLING MAQOMI TALQINI G‘ayibova Nargiza Anorbayevna	20
QANDLI DIABETGA CHALINGAN SHAXSLARDA EMOTSIONAL BARQARORLIK VA INDIVIDUAL-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARNING O‘ZARO ALOQADORLIGI Sadikova Umida Botirovna	27
O‘QITUVCHILARDA KASBIY STRESSNING YUZAGA KELISHIGA TA’SIR ETUVCHI INDIVIDUAL-PSIXOLOGIK OMILLAR Konratbaeva Ayjamal Bazarbaevna	35
OLIY TA’LIMDA SOG‘LOM PSIXOLOGIK MUHITNI SHAKLLANTIRISHNING ASOSIY OMILLARI Xusanbayeva Ziyoda Maxmutdjon qizi	43
O‘SMIRLIK DAVRIDA INKLYUZIV TA’LIM MUHITIDA IJTIMOIY TOLERANTLIKNING PSIXOLOGIK MOHIYATI Mirsidikova Aziza Mirvohidovna	50
HARBIY XIZMATCHILARDA KASBIY DEFORMATSIYANI OLDINI OLISHNING PSIXOLOGIK TEXNOLOGIYALARI Qodirov G‘olibjon Tolibjon o‘g‘li	63
TA’LIM JARAYONIDA DEONTOLOGIK TAMOYILLAR ASOSIDA NIZOLARNI BOSHQARISH Mirzayeva Faroxat Odiljonovna	70
PEDAGOGIK TAFAKKUR TARIXIDA FIKR TARBIYASI: YONDASHUVLAR VA ZAMONAVIY TA’LIMDA QO‘LLANISH IMKONIYATLARI Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna	78

KREATIV YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARINING LINGVOMETODIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH **Yuldasheva Umida Maxmudovna**	**85**
KURSANT VA TALABALARNING JISMONIY TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH VA EKSTREMAL SHAROITLARDA HARAKAT QILISH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI **Yulliyev Nuriddin Jumanazarovich**	**92**
SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANGAN HOLDA TIBBIYOT OLIY TA’LIM MUASSASALARI TALABALARINING AXBOROT KOMPETENTSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI ISHLAB CHIQISH TEXNOLOGIYASI **Sayfullaeva Dilbar Izzatillaevna**	**101**
KASBIY MADANIYATSHUNOSLIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVNING IMKONIYATLARI **Komiljonova Mohinur Alllabergan qizi**	**110**
“TARBIYA” DARSLARIDA RAQAMLI HIKOYALAR ORQALI O‘QUVCHILARDA HALOLLIK, MAS’ULIYAT VA MEHR-OQIBAT FAZILATLARINI SHAKLLANTIRISH **Abdullayeva Surayyo Babojonovna**	**119**
O‘ZBEKISTONDA KIMYO O‘QITISH METODIKASINING SHAKLLANISHI VA TARIXIY TARAQQIYOTI **Sulaymonqulov Islomjon**	**131**
GLOBALLASHUV SHAROITIDA IJTIMOIY HIMOYA TERMINOLOGIYASINING TRANSFORMATSIYASI VA UNI MILLIY TERMIN SHAKLIDA TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI **Elmirzayeva Maftuna Do‘smurod qizi**	**136**

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINI SHE’RIY ASARLAR TAHLILIGA TAYYORLASHNING ILMIY-METODIK ASOSLARI 145
Mullayeva Madina Qudratovna